

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI DSc.30/30.12.2019.Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

XAITOVA MASTURA XUSANOVNA

**DAVLAT TASHKILOTLARI AXBOROT XIZMATLARI PR
KOMMUNIKATSIYALARINING
IJTIMOIY XUSUSIYATLARI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Table of Contents of the Abstract of the Dissertation for the Degree of Doctor
of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**

Xaitova Mastura Xusanovna

Davlat tashkilotlari axborot xizmatlari PR kommunikatsiyalarining ijtimoiy xususiyatlari 5

Хайтова Мастура Хусановна

Социальные особенности PR коммуникаций информационных служб государственных организаций 30

Khaitova Mastura Xusanovna

Social features of PR communications of information services of governmental organizations 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI DSc.30/30.12.2019.Fil.14.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

XAITOVA MASTURA XUSANOVNA

**DAVLAT TASHKILOTLARI AXBOROT XIZMATLARI PR
KOMMUNIKATSIYALARINING IJTIMOIIY XUSUSIYATLARI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4269 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.uzjoku.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Qosimova Nargis Sunnat qizi filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Mamatova Yoqutxon Muxamedjanovna filologiya fanlari doktori, professor
	Usarov Olimjon Avalbayevich filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.30/30.12.2019.Fil.14.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (+99871) 207-09-06; email: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (+99871) 207-09-06; email: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.T. Quadratxo'ja
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi, s.f.d., professor

A.I. Safarov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d. (PhD)

N.F. Muratova
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d.
(DSc), dotsent

KIRISH

(filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etayotgan kommunikatsiyani tushunishga nisbatan kamida uchta asosiy eng keng tarqalgan yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi – moddiy olam har qanday obyektning kommunikatsiya vositasidir. Bu yondashuv doirasida transport, energetika, suv yo'llar orqali va boshqa turdagi kommunikatsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ikkinchisi – shaxslararo muloqot. Axborotning bir insondan boshqa bir insonga uzatilishi tushuniladi. Uchinchisi esa ijtimoiy muloqot. Jamiyatga ta'sir ko'rsatish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan axborotlarning almashishi¹ hisoblanadi. Shu sababdan kommunikatsiyani tadqiq etish va undan davlat tashkilotlari faoliyatida samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon miqyosida globallashuvning yanada jadallashishi hamda axborot tarqatish tezligining oshib borishi natijasida internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali butun dunyo bo'ylab birzumdagi ma'lumot tarqatish imkoniyati yuzaga keldi. Ushbu omil davlat tashkilotlari PR kommunikatsiyalardan foydalangan holda axborot oqimini boshqarish lozimligini anglatadi. Ma'lumotlarning ko'pligi esa xabarni maqsadli auditoriyaga yetkazishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, jamiyat a'zolarining davlat tashkilotlaridan ko'proq shaffoflik va ochiqlikni talab qilishi esa tabiiy jarayon sanaladi. Shu sababdan ham axborot xizmati samarali PR texnologiyalaridan foydalangan holda PR kommunikatsiyalar orqali jamoatchilik bilan muloqotni o'rnatishga, davlat tashkilotlari maqsad va vazifalarini hamda faoliyat yo'nalishlarini tushuntirishi lozim.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining roli yanada ortib borishi natijasida fuqarolarning jamiyat hayotida va davlat boshqaruvidagi ishtiroki kun sayin faollashmoqda. Fuqarolar o'z fikrlari va ehtiyojlarini ifoda etishda yanada faolroq bo'lib, davlat tashkilotlaridan o'z savollariga javob berishlarini va muammolarini hal qilishda ishtirok etishlarini talab qilmoqdalar. PR kommunikatsiya fuqarolar bilan muloqot o'rnatishga va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganlaridek, "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash hamda ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimi joriy etildi. Jumladan, yaqinda birinchi marta o'tgan yil yakunlariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlarida amalga oshirilgan ishlarni baholash bo'yicha Ochiqlik indeksi natijalari e'lon qilingani bu yo'ldagi muhim qadam bo'ldi"². Shundan kelib chiqib, davlat tashkilotlari o'z faoliyatlarini samarali tashkil etishlari uchun fuqarolarning fikr-mulohazalariga ochiq bo'lishlari, ularning qabullarini doimiy ravishda tashkil etib borishlari va tanqidlarga qisqa muddatda javob berishlari zaruriyati tug'ilmoqda. Bu esa davlat tashkilotlari axborot xizmati PR kommunikatsiyalarini to'g'ri yo'lga qo'yishi nechog'lik muhim ekanligini isbotlaydi va tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi.

¹ Основы теории коммуникации. Учебник / Под ред. М.А. Василика. – М.: Гардарики, 2003. С. 8.

² <https://president.uz/uz/lists/view/6442>

O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqdigi to‘g‘risida”gi Qonuni³, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori⁴, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni⁵ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. PR va PR kommunikatsiya tushunchalari xorij va o‘zbek mutaxassislari tomonidan atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, jumladan, PRning O‘zbekistonda yuzaga kelish tarixi va uning nazariy manbalari hamda PRning zamonaviy shakllari va yurtimizda mediasavodxonlik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarga quyidagi olimlarni kiritish mumkin: F.Mo‘minov, Q.Ernazarov, A.Nurmatov, N.G‘afforov, M.Soliyeva, N.Muratova, N.Toshpo‘latova, G.Alimova, N.Qosimova, Yo.Mamatova, S.Sulaymonova, X.Do‘stmuhammad va H.Fayzullayeva⁶.

PR kommunikatsiyaga oid ilmiy izlanishlar olib borgan rossiyalik tadqiqotchilarga V.A. Moiseyev, G.G. Pochepsov, A.N. Chumikov, V.G. Korolko, M.A. Shishkina, F.I. Sharkov, A.A. Rodionov, I.P. Yakovlev⁷ va boshqa olimlarni

³ Ўзбекистон Республикасининг “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-369-сон қонуни. 2014 йил 5 май. <https://lex.uz/docs/2381133>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Оммавий ахборот воситалари мустақиллигини таъминлаш ҳамда давлат органлари ва ташкilotлари ахборот хизматлари фаолиятини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4366-сонли қарори. 2019 йил 27 июнь. <https://lex.uz/docs/4390513>

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. 2022 йил 28 январь. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁶ Муминов Ф. Паблик Рилейшнз: история и теория. – Т.: ИД “Ijod dunyosi”, 2004; G‘afforov N. Jamoatchilik bilan ishlash – Pablik rileyshnz. – Т.: “Zar qalam”, 2004; Mo‘minov F. “Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida”. – Т.: “Universitet”, 2003; Ernazarov Q. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. – Т., 2002; Mualliflar jamoasi. Jurnalistika, reklama, Pablik rileyshnz: 1700 atama lug‘at-ma’lumotnoma. – Т.: “Zar qalam”, 2003; Mo‘minov F., Nurmatov A., Soliyeva M. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. – Т.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2006; Mamatova Ya., Sulaymonova S., Uzbekistan po puti razvitiya mediaobrazovaniya. – Т.: “Extremum-press”, 2017; X.Do‘stmuhammad. Axborot – mo‘jiza, joziba, falsafa. – Т.: “Yangi asr avlodi”, 2013; Mualliflar jamoasi. Zamonaviy media muhitda PR-xizmatlar. – Т.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019; Qosimova N. Onlayn jurnalistika. – Т.: “O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI”, 2020; Muratova N.F., Toshpo‘latova N.K., Alimova G.B. Fake news: mediada dezinformatsiya (Jurnalistika va kommunikatsiya yo‘nalishlari talabalari uchun qo‘llanma) – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020; Qosimova N., Fayzullayeva H. Media etika (Jurnalistika va kommunikatsiya yo‘nalishlari talabalari uchun darslik). – Т.: “O‘zbekiston”, 2020.

⁷ Моисеев В.А. PR теория и практика. – К.: Вира-Р, 1999; Почепцов Г.Г. Паблик Рилейшнз для профессионалов. – М.: Издательство Рефл-бук, Ваклер, 1999; Чумиков А.Н. Паблик Рилейшнз. Связи с общественностью. – М.: Дело, 2000; Королько В.Г. Основы Паблик Рилейшнз. – К.: Ваклер, 2002; Шишкина М.А. Паблик рилейшнз в системе социального управления. – Санкт-Петербург: Паллада-медиа, 2002; Шарков Ф.И., Родионов А.А. Реклама и связи с общественностью. – М.: Академический проект, 2005; Яковлев И.П. Современные теории массовых коммуникаций. – СПб.: Роза мира, 2004.

kiritish mumkin. Ular o‘z tadqiqotlarida PR tushunchasi, PR kommunikatsiya va ommaviy kommunikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalib o‘tishgan.

Tadqiqot davomida PR nazariyasi va amaliyoti, uning qo‘llanish sohalari, PR kommunikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini g‘arb olimlaridan James E. Grunig, Guy J. Golan, Sung-Un Yang, Dennis f. Kinsey, Em Griffin, Ronald D. Smith, Clea Bourne, Deirdre K. Breakenridge⁸ tadqiqotlarida, shuningdek, nazariy va qisman empirik manba sifatida chet el tadqiqotchilari Lisa Tam, Jeong-Nam Kim, James E. Grunig, Jeffrey A. Hall & Jerry Swerling, Neha Gondal, Maria Jose Canel, James Ndone⁹ kabi mualliflarning ilmiy jurnallar, konferensiya materiallarida e‘lon qilgan maqolalari va tezislardan ham foydalanildi. Ilmiy maqolalarda PRning marketing va menejmentdan alohida va mustaqil soha ekanligi, turli tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan ommaviy reytinglar ijtimoiy mediaga ham ta‘sir o‘tkazishi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy PR va jamoatchilik bilan aloqalarning dolzarb masalalari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Davlat tashkilotlari axborot xizmatlari PR kommunikatsiyalarining ijtimoiy xususiyatlari chuqur o‘rganilib, ularning jamiyatga ta‘siri baholandi, jamoatchilik fikrining muhimlik darajasini shakllantirishdagi roli, aholi bilan o‘zaro aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning maqsadli auditoriyaga ta‘sir etish usullari va samaradorligi tadqiq etildi. O‘zbekistonda PR kommunikatsiyaning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy xususiyatlari, media muhitda jamoatchilik bilan aloqalarning o‘rni, shuningdek, davlat tashkilotlari axborot xizmatlari hamda PR kommunikatsiyalarini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

- ommaviy kommunikatsiyalar tarkibida PR kommunikatsiyaning o‘rnini belgilash;
- PR kommunikatsiya mohiyatini ochish va vazifalarini tadqiq etish;

⁸ James E. Grunig. Excellence in Public Relations and Communication Management. Taylor and Francis Group, 2008.; Guy J. Golan, Sung-Un Yang, Dennis f. Kinsey International public relations and public diplomacy. Peter Lang Publishing, 2015.; Em Griffin A first look at communication theory. Published by McGraw-Hill, 2012.; Ronald D. Smith Strategic Planning for Public Relations. Taylor and Francis Group, 2021; Clea Bourne. Communicating in Professions and Organizations. The Editor(s) (if applicable) and The Author(s) 2022; Deirdre K. Breakenridge Social Media and Public Relations Eight New Practices for the PR Professional. Pearson Education, Inc., 2012.

⁹ Lisa Tam, Jeong-Nam Kim, James E. Grunig, Jeffrey A. Hall & Jerry Swerling. “In search of communication excellence: Public relations’ value, empowerment, and structure in strategic management”. Journal of Marketing Communications, Great Britain, 2020; Neha Gondal, “The gap between public evaluations and interactional status in social networks”. Social Network Analysis and Mining, Switzerland, 2023; James E. Grunig, “Negotiation and Conflict Management: Two Valuable Tools in the Public Relations Toolbox”. International Association for Conflict Management, USA, 2022; Maria Jose Canel, “A call for the “Public Relations-imperative for sustainability”: Roles for public relations in advancing the 2030 Agenda”. University Complutense of Madrid, Spain, 2023; James Ndone. “Internal crisis communication: The effects of negative employee-organization relationships on internal reputation and employees’ unsupportive behavior”, Department of Communication, Media, & Culture, Coastal Carolina University, 2023.

- O‘zbekistonda PR institutining huquqiy asoslari va uning shakllanish bosqichlarini o‘rganish;
- O‘zbekistonda PR kommunikatsiyalarning rivojlanishida davlat tashkilotlari axborot xizmatlarining ustuvor vazifalarini belgilash;
- davlat tashkilotlari tomonidan ichki va tashqi PR kommunikatsiyani tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;
- PR texnologiyalar samaradorligini baholash usullarini tahlilga tortish;
- O‘zbekistonda davlat tashkilotlarida shakllanayotgan PR amaliyotini o‘rganish;
- davlat tashkilotlarining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarini tahlil qilish;
- samarali PR kommunikatsiyani tashkil etishda auditoriyaning muhimlik darajasini aniqlash va unga oydinlik kiritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot xizmati faoliyati belgilangan.

Tadqiqot predmetini vazirliklar axborot xizmatining kommunikatsion siyosati, axborot xizmati tomonidan qo‘llanilayotgan PR texnologiyalar, axborot manbasi hamda maqsadli auditoriyasi bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari hamda vazirliklarning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni professional tashkil etish maqsadida bir nechta metodlar majmuidan foydalanildi. Jumladan, emperik va nazariy (tahliliy sintetik, tarixiy-qiyosiy, kontent-analiz, sotsiologik, deduksiya va induksiya), diagnostik (jurnalistik kuzatuv va so‘rovnoma), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- davlat tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini o‘rganish kontekstida PR kommunikatsiya va PR texnologiya metodologiyasi ishlab chiqilib, ommaviy kommunikatsiyalar tarkibida PR kommunikatsiyaning o‘rni alohida ekanligi belgilangan va uning PRdan alohida tushuncha ekanligi isbotlangan;
- davlat tashkilotlari PR kommunikatsiyalari natijadorligini baholash uchun ijtimoiy ta’sir, shaffoflik va jamoatchilik bilan o‘zaro aloqa samaradorligini o‘lchash metodologiyasi asoslangan;
- sotsiologik va kommunikatsiya tadqiqotlarining zamonaviy usullaridan foydalangan holda olingan empirik ma’lumotlar asosida axborot xizmatlari PR kommunikatsiyalarining davlat tashkilotlari imijiga ijobiy ta’siri nazariy va amaliy jihatdan dalillangan;
- tadqiqot natijalari asosida davlat tashkilotlari axborot xizmatlarining jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan PR strategiyasini ishlab chiqish, samarali PR kommunikatsiyani tashkil etishda tashkilot maqsadli auditoriyasining muhimlik darajasini aniqlash, “Jamoatchilikning muhimlik darajasi” formulasi asosida tahlillar o‘tkazish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan va uning zarurati dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

– davlat tashkilotlari axborot xizmatlari PR kommunikatsiyalarining ijtimoiy xususiyatlarini yanada xolis o‘rganish va obyektiv xulosalar berish maqsadida soha mutaxassislari va keng jamoatchilik o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, mavzu tahlil qilindi;

– O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot xizmatining faoliyati yuzasidan rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari o‘rganildi hamda tegishli tavsiyalar berildi;

– O‘zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish “Samarali PR kommunikatsiyalar orqali maqsadli auditoriya bilan ishlash usullari” mavzusida uslubiy qo‘llanma ishlab chiqish va amalga oshirish, oliy ta’lim muassasalarining jurnalistika fakultetlarida “Axborot xizmati faoliyatini tashkil etish” fani doirasida turli o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratishda foydalanish mumkinligi belgilandi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi, O‘zLiDeP va “Adolat” sotsial-demokratik partiyalari matbuot kotiblari va axborot xizmati xodimlari uchun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchilari uchun mahorat darslari tashkil etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Dissertatsiyada foydalanilgan nazariy ma’lumotlar zamonaviy xorij va milliy manbalardan olingan bo‘lib, samarali tadqiqot metodologiyasi va metodikasidan foydalanilgan, mavzu nazariy g‘oyalar bilan boyitilgan hamda so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqot natijalariga tayanilgan. Ilmiy-amaliy xarakterdagi xulosalar tasnifiy, qiyosiy metodlarga asoslangan, ilmiy fikr va takliflarning amaliyotga, xususan, milliy qonunchiligimizga mos kelishi tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati mazkur dissertatsiyadan oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘quv darsliklari yaratish, ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkinligi, shuningdek, ishda PR kommunikatsiya bilan bog‘liq ta’rif va tasniflar umumlashtirilib, amaliyotchi jurnalistlar va matbuot kotiblari uchun o‘quv qo‘llanma nashr etishda fundamental manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa O‘zbekistonda davlat tashkilotlari samaradorligini oshirishda kommunikatsiya imkoniyatlaridan unimli foydalanish, to‘g‘ri qurilgan PR kommunikatsiya davlat tuzilmalariga fuqarolar, hamkorlar, ommaviy axborot vositalari va xalqaro tashkilotlar bilan samarali muloqot qilishga yordam berish hamda ularning ish samaradorligini oshirish usullari ko‘rib chiqilganligi, zamonaviy dunyoda keng tarqalgan dezinformatsiyaga qarshi turish va fuqarolarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini to‘laqonli qondirish borasida mamlakatimizda mavjud muammolar tahlil qilinganligi hamda ularni bartaraf etishda samarali PR kommunikatsiyaning ahamiyati aniqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat tashkilotlari axborot xizmati PR kommunikatsiyalarining ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganish orqali shakllantirilgan xulosa va amaliy takliflar asosida:

– davlat tashkilotlari axborot xizmati o‘z kommunikatsion siyosatini amalga oshirishda doimiy ravishda o‘z media resurslari imkoniyatlaridan foydalanib, o‘z maqsadli auditoriyasiga tashkilot faoliyati bo‘yicha ma‘lumotlarni yetkazish muhimligi borasidagi xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi axborot xizmati faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 30-avgustdagi 10-14/15-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, vazirlikning maqsadli auditoriyasi talablaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarini yanada samarali yuritishga erishilgan;

– davlat tashkiloti axborot xizmati faoliyati nafaqat ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, balki ichki kommunikatsiyaga qaratilgan xodimlar bilan munosabatlarni yaxshilash, jamoat tashkilotlari bilan ishlash, jamoatchilik bilan bevosita samarali munosabatlar (savollarga va ularning murojaatlariga javob berish) o‘rnatish, tashkilot ijobiy imijini shakllantirish bilan shug‘ullanibgina qolmay, tizim tashkilotlari hamda ularning matbuot kotiblari bilan ham samarali aloqalar o‘rnatish lozimligiga doir tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 28-avgustdagi 4/17-03/02-735-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, tizim tashkilotlari matbuot kotiblari PR kommunikatsiyalarning axborot xizmati faoliyatiga ta‘sirini to‘liqroq tushunish imkonini berdi hamda ularning mahorati yanada oshishiga hissa qo‘shilgan;

– davlat boshqaruvi tizimidagi axborot xizmati davlat organlari tuzilmalarining keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari hamda turli jamoat tashkilotlari bilan maqsadli o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, ular tomonidan amalga oshiriladigan davlat hokimiyati va boshqaruvining axborot-kommunikativ funksiyasini amalga oshirishga doir tavsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2024-yil 29-avgustdagi 18/1-06-5139-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, an‘anaviy IV “Axborot xizmatlari faoliyati: ochiqlik, tezkorlik va xolislik bosh mezon” mavzusidagi Milliy konferensiya va uning doirasida Media-forum ishini yuqori saviyada o‘tkazishda samarali PR kommunikatsiyalarni tashkil etishda auditoriyaning muhimlik darajasini aniqlash hamda “Jamoatchilikning muhimlik darajasi” formulasidan foydalanish davlat tashkilotlari axborot xizmati faoliyatini yanada samarali tashkil etishga erishilgan;

– davlat tashkilotlari faoliyatiga oid ma‘lumotlarni keng jamoatchilikka tushunarli va sodda tilda yetkazishda axborot xizmatining rolini oshirish borasidagi tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki axborot xizmati faoliyatida foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil 19-avgustdagi 39-15/132-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Markaziy bank tizimidagi tijorat banklari axborot xizmati faoliyati yanada rivojlantirildi hamda PR kommunikatsiyalardan foydalanish orqali tijorat banklarining turli ijtimoiy guruhlar,

jumladan, maqsadli auditoriyasi bilan o‘zaro aloqa mexanizmlari optimallashtirilgan;

– davlat tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini o‘rganish kontekstida ishlab chiqilgan PR kommunikatsiya va PR texnologiya metodologiyasi, ommaviy kommunikatsiyalar tarkibida PR kommunikatsiyaning muhimlik darajasi bo‘yicha keltirilgan xulosalardan “O‘zsuvta‘minot” aksiyadorlik jamiyati faoliyatida foydalanildi (“O‘zsuvta‘minot” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 28-avgustdagi 14/18-24-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, “O‘zsuvta‘minot” AJ koll-sentr xizmati xodimlari hamda tashkilotning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar suv ta‘minoti korxonalarida axborot xizmati rahbarlari uchun o‘quv kursi tashkil etilgan va matbuot kotiblari kasbiy mahoratining oshishiga yordam berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy yuqori impakt faktorli jurnallarda nashr etildi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi, uni respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligiga asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Davlat tashkilotlarida PR kommunikatsiyalarining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “Kommunikatsiya” va “PR” tushunchalari sohada ilmiy faoliyat olib borayotgan mahalliy va xorijiy olimlar talqinlari nuqtayi nazaridan atroflicha ko‘rib chiqildi va ularning fikrlarini umumlashtirgan holda ta‘rif berildi.

“Kommunikatsiya” tushunchasi XX asr boshidan buyon ilmiy atama sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Shu o‘rinda kommunikatsiya bilan jurnalistika tushunchalarini farqlab olish maqsadga muvofiq. Jurnalistika “birinchi navbatda uning ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan axborotni yig‘ish, qayta ishlash va

tarqatishdek ijodiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati”¹⁰ hisoblansa, “kommunikatsiya odamlar o‘rtasidagi bir-birlariga qandaydir axborotni uzatish uchun o‘rnatiladigan doimiy aloqa va o‘zaro munosabatni anglatadi”¹¹.

Demak, ayrim olimlar PRni tashkilot va jamoatchilik o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar deb ta’riflasalar, boshqa olimlar shaxslar, tashkilot va bir guruh kishilarning o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarini o‘rnatish deb ham tushunadilar. Amerikalik olim va “Public Relations Research” jurnali asoschisi Jeyms Gruning esa “PR tashkilotning o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatiga ta’sir qiluvchi tashqi va ichki jamoatchilik guruhlari bilan tashkilotning kommunikatsiyalarini umumiy rejalashtirish, amalga oshirish va baholashni tavsiflaydi”¹² deb ta’riflaydi. Olimning PRga keltirgan ta’rifida uning rejalashtirish, amalga oshirish va baholash kabi vazifalariga alohida urg‘u berganligi davlat tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishida axborot xizmatining o‘rni nechog‘lik muhim ekanligini isbotlaydi.

Ikkinchi paragrafda mamlakatimizda PR institutining huquqiy asoslari milliy qonunchiligimiz misolida tadrijiy shaklda tahlil qilindi va PR institutining shakllanish davrini 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish tavsiya etildi: mustaqillikning ilk yillari bosqichi (1996-2000); rivojlanish davri bosqichi (2001-2019); yangi davr bosqichi (2019 yildan hozirgi kungacha).

Mazkur bobning uchinchi paragrafida mamlakatimizda PR kommunikatsiyalarning rivojlanishida davlat tashkilotlari axborot xizmatlarining vazifalari tahlil qilingan va bir nechta olimlarning qarashlari bayon etilgan. Davlat tashkilotlari o‘zlarining ijobiy imijini shakllantirish bilan cheklanib qolmay, xalqqa xizmat qilishi kerak.

Axborot xizmatining asosiy vazifalaridan biri tashkilotning jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirishdan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Adliya va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari axborot xizmati faoliyatini SWOT tahlil orqali ko‘rib chiqdik.

1-jadval

Vazirlik	Strengths – kuchli tomonlari	Weaknesses – kuchsiz tomonlari	Opportunities – imkoniyatlari	Threats – tahdidlar
Adliya vazirligi axborot xizmati	Ijtimoiy tarmoqlarda faol, doimiy ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirlar tashkil qiladi, jurnalist va fuqarolar	Yoritiladigan mavzularning tor doirada ekanligi, huquqiy mavzular yuridik tilda yozilishi, PR matnlarining	Qabul qilalayotgan qonun hujjatlari muhokamasida va uning tahrir jarayonida ishtirok etish mumkinligi, yangi huquqiy	Qonunchilik bilan bog‘liq yopiq ma’lumotlar tashqariga chiqib ketishi mumkinligi, tizimdan

¹⁰ Mo‘minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. – T.: “Universitet”, 1998. – B. 4.

¹¹ O‘sha yerda. – B. 7.

¹² James E. Grunig. Excellence in Public Relations and Communication Management. Taylor and Francis Group, 2008. P. 4.

	murojaatlariga tezkor munosabat bildiradi	xalqchil va sodda tilda emasligi, huquqiy mavzuga aksariyat aholi qiziqmasligi	normalardan birinchilar qatorida xabardor bo‘lish, qonunlar ijrosining monitoringini doimiy kuzatib borish	norozi xodimlarning vazirlik imijiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot xizmati	Vazirlikning maqsadli auditoriyasi bo‘lgan talabalar uchun barcha yangiliklar mavjudligi, talabalar bilan qayta aloqa o‘rnatilganligi, edu.uz telegram kanalida izoh qoldirish funksiyasi yoqilganligi, talabalar murojoatlari uchun “eduuz bilan muloqot” telegram kanalining mavjudligi	Abituriyentlar bilan ishlash mexanizmi to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi, vazirlikning yana bir maqsadli auditoriyasi bo‘lgan talabalar yoshlarning ota-onalari bilan kerakli darajada ishlar tashkil etilmaganligi, jonli efirlar sonining kamligi	Respublikada mavjud oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshirish va dunyoning top muassasalari ro‘yxatiga kirishi natijasida davlatning imijini ko‘tarish mumkin, oliy ta’limga jalb qilinmagan yoshlar bilan ishlash mexanizmi imkoniyatlaridan foydalanish	Yoshlarga taalluqli negativ axborotning tez tarqalishi, oliy ma’lumotli yoshlarning bandligi masalasi doimo dolzarb ekanligi, ishsizlikda vazirlikning ta’lim sifatining sabab qilib ko‘rsatilishi

Axborot xizmati – bu mahalliy ijro etuvchi hokimiyat apparati tarkibiy bo‘linmasi bo‘lib, uning rahbariga bevosita bo‘ysunadi. Axborot xizmatining ishini tashkil etish uning qaysi sektorda ishlashiga bevosita bog‘liq¹³.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatida qo‘llaniladigan PR kommunikatsiyalarning ijtimoiy xususiyatlari”** deb

¹³ Косимова Н., Бабаджанова Г., Исламова Л. Эффективная коммуникация с общественностью. Практическое пособие для информационных служб. – Т., 2013. С. 10.

nomlangan II bobida tadqiqotimizning obyekti bo'lgan Adliya vazirligi axborot xizmatining faoliyati tahlil qilindi.

Bobning 1-paragrafida Adliya vazirligi kommunikatsion siyosati va uning jamoatchilikka ijtimoiy-huquqiy ta'siri o'rganildi. Vazirlik axborot xizmati faoliyatini o'rganish jarayonida uning kommunikatsion siyosatining asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Vazirlik veb-sayti¹⁴, rasmiy telegram kanali¹⁵, sobiq matbuot kotibi Sevara Urinboevaning rasmiy telegram kanali¹⁶, Youtube platformasidagi¹⁷, feysbukdagi¹⁸, instagramdagi rasmiy sahifalari¹⁹, qonunchilik yangiliklariga bag'ishlanagan alohida telegram kanali²⁰ orqali vazirlik faoliyatiga oid yangiliklarni hamda turli shakldagi media mahsulotlarni keng jamoatchilikka taqdim etadi.

Adliya vazirligi axborot xizmatining kommunikatsion siyosati axborot xizmati uchun kommunikatsiya tamoyillari va standartlarini belgilashga xizmat qiladi. Kommunikatsion siyosatning maqsadi vazirlik maqsadli auditoriyasi bilan samarali, shaffof va izchil aloqani ta'minlashdir. Bu borada vazirlik axborot xizmati mamlakatimizda birinchilardan bo'lib jamoatchilik bilan jonli onlayn formatda muloqat qilish shaklini tanlaydi. Sababi, jonli e'fir vaqtida vazir ko'p ming sonli fuqarolar ko'z o'ngida qaltis savollarga javob berish ehtimolini hisobga olishi lozim edi. Ushbu tahdidlarga qaramay sobiq Adliya vaziri Ruslanbek Davletov 2020-yil 25-noyabr kuni avvalgi facebook (hozirda meta) internet platformasida ONLAYN MULOQOT tashkil etdi. E'tiborga molik tomoni onlayn muloqot o'tkazishdan avval vazirlikning axborot kanallarida, shuningdek, bir qator ommaviy axborot vositalarida e'lonlar berildi hamda maxsus postlar joylashtirildi. Ushbu e'lon #Adliya_vaziri #onlayn_muloqot_ilk_bora #Xalq_bilan_muloqot #ochiq_adliya kabi xeshteglar ostida nafaqat vazirlikning rasmiy veb-sayti²¹ va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida²², balki barcha elektron va bosma nashrlarda e'lon qilindi.

Ikkinchi bobining 2-paragrafida vazirlik axborot xizmati faoliyati samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan konstruktiv PR texnologiyalar tahlil qilindi va ushbu texnologiyalar samarali amalga oshirilayotganligi keyslar misolida dalillandi. Tahlil davomida vazirlikning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalari o'rganildi va uning eng faoli telegram ekanligi aniqlandi. Telegram orqali tashkil etilgan bir nechta botlar vazirlikning keng jamoatchilik, jumladan, maqsadli auditoriyasi bo'lgan fuqarolar bilan qayta aloqa o'rnatish imkonini berayotganligi

¹⁴ <https://adliya.uz/>

¹⁵ <https://t.me/adliyangiliklari>

¹⁶ <https://t.me/SevaraJournalist>

¹⁷ <https://www.youtube.com/@Adliya>

¹⁸ <https://www.facebook.com/minjustuz>

¹⁹ <https://www.instagram.com/adliyanews>

²⁰ <https://t.me/huquqiyaxborot>

²¹ Adliya vaziri Ruslanbek Davletov ilk bora Facebook ijtimoiy tarmoqidagi "Xalq bilan muloqot/Dialog s narodom" guruhida fuqarolar bilan ONLAYN MULOQOT utkazadi. Manba: <https://old.adliya.uz/uz/press-center/announcement/101246/?print=Y>

²² Министр юстиции Русланбек ДАВЛЕТОВ проведет ОНЛАЙН ДИАЛОГ с гражданами в группе «Халк билан мулоқот/ Dialog с народом» в Facebook. Манба: <https://www.facebook.com/groups/588441011280149/search/?q=%D0%BE%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D0%B9%D0%BD%20%D0%BC%D1%83%D0%BB%D0%BE%D2%9B%D0%BE%D1%82>

isbotlandi. Biroq ijtimoiy tarmoqlar orasida mamlakatimiz yoshlari orasida faol foydalanilayotgan instagramdagi rasmiy sahifasi talab darajasida yuritilmayotganligi aniqlandi.

Vazirlik faoliyatida qo'llaniladigan konstruktiv PR texnologiyalar:

1. Informatsion kontent yaratish va tarqatish;
2. Ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish;
3. Doimiy ravishda media tadbirlar tashkil etish.

Vazirlik axborot xizmati yil yakunida keyingi yil uchun tashkilot faoliyatini keng targ'ib qilishga qaratilgan maxsus media-reja tuzadi va uni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi.

Quyidagi jadvalda vazirlik axborot xizmati tomonidan o'tgan 2023-yil davomida amalga oshirilgan media tadbirlar tahlilini ko'rib chiqamiz:

2-jadval

№	Media tadbirlar nomi	I chorak	II chorak
1.	Matbuot anjumani	7	7
2.	Brifing	9	9
3.	Press-tur	13	3
4.	To'g'ridan-to'g'ri jonli efir	24	29
5.	Video bayonot	11	10
6.	Rasmiy munosabat	7	5
7.	OAV vakillari uchun trening	2	1
Jami:		73	64

Quyidagi jadvalda vazirlik axborot xizmati tomonidan o'tkazilgan jami 137 ta media tadbir doirasida tayyorlangan materiallar shaklini tahlil qilamiz:



3-jadval

№	Tayyorlangan material shakli	I chorak	II chorak
1.	Foto	722	1322
2.	Video	92	130
3.	Matn	988	2264
4.	Infografika	71	91
Jami:		1873	3807

Ushbu jadvallar tadqiqotimiz davomida vazirlik axborot xizmati faoliyatini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

4. Tahlil va monitoring o'tkazish.

1-rasm



Adliya vazirligi veb-sayti tahlilidan ko‘rish mumkinki, saytga bir oy davomida o‘rtacha 1,1 million foydalanuvchi tashrif buyuradi. Ularning 53,9 foizi kompyuterlar orqali, 46,3 foizi esa mobil qurilmalardan foydalangan holda saytni kuzatadi. Ikkinchi rasmda esa saytga, asosan, www.lex.uz, www.ombudsman.uz, www.xdp.uz va www.advice.uz saytlari orqali o‘tishganligini ko‘rish mumkin.

5. Inqirozli vaziyatlarni boshqarish.
6. Jamoatchilik bilan aloqalar o‘rnatish.
7. Ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlashdan iborat.

Ayniqsa, faollik boshqa ijtimoiy tarmoqlarga qaraganda feysbuk sahifasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Quyidagi rasmda vazirlikning feysbukdagi rasmiy sahifasi va uning foydalanuvchilardan tavsiya etish ko‘rsatkichi 80 % ekanligini ko‘rish mumkin. Bu O‘zbekiston Respublikasidagi davlat tashkilotlarining feysbukdagi rasmiy sahifalari orasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Obunachilarining soni esa 9,8 ming kishini tashkil etadi. Bu ham boshqa vazirliklarga qaraganda yaxshi ko‘rsatkichdir.

2-rasm



Adliya vazirligi o‘z kommunikatsion siyosatini ta’minlash bilan birga uni keng jamoatchilikka, hamkor va xalqaro tashkilotlarga yetkazishga muvaffaq bo‘ladi. Bu orqali esa ijtimoiy kommunikatsiya shakllantiriladi va jamiyat a’zolari bo‘lgan turli qatlam vakillari bilan qayta aloqa o‘rnatiladi.

Bobning 3-paragrafida vazirlik axborot xizmati tomonidan qo‘llanilayotgan PR texnologiyalar samaradorligini baholash usullari ko‘rib chiqildi:

– tashkilot PR faoliyatining samaradorligini namoyish qilishga bo‘lgan intilish, istalgan narsani haqiqiy deb ko‘rsatishga urinish bo‘lib qolmasligi uchun samaradorlikning konseptual tarkibi, uning turlari va darajalarini aniq tasavvur etish lozim. Xarajatlar, ya’ni mablag‘ va tashkilotning moddiy zahiralaridan tejamkorlik bilan foydalanilganligini ifodalovchi qo‘lga kiritilgan natijalarga bo‘lgan nisbati ($S=N/H$) – natijaga erishish uchun xarajatlar qanchalik kam bo‘lsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo‘ladi;

– natijaning faoliyat maqsadlarini amalga oshirish darajasini ifodalovchi ko‘zlangan maqsadlarga bo‘lgan nisbati ($S=N/M$) – natijalar maqsadlarga qanchalik ko‘p darajada mos kelsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo‘ladi;

– maqsadlarning oldindan aniqlangan haqiqiy ehtiyoj va muammolarga bo‘lgan nisbati ($S=M/E$) – erishilgan maqsadlar haqiqiy ehtiyojlarni qanchalik ko‘proq qondira olsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo‘ladi.

Shartli ravishda samaradorlikning ushbu turlarini S – “samaradorlik”, T – “tejamkorlik”, N – “natijadorlik” va M – “maqsadga muvofiqlik”, E – “ehtiyoj”, H – “xarajatlar” sifatida tegishli so‘zlarning bosh harflari bilan ta’riflash mumkin.

Adliya vazirligi PR samaradorligini tahlil qilish bosqichlarini quyidagi shaklda o‘rganish mumkin:

4-jadval

	Maqsadga muvofiqlik (M/E)	Natijadorlik (N/M)	Tejamkorlik (N/H)
Bir martalik aksiya	“Men donorman” xayriya aksiyasi	Adliya xodimlari xayriya tadbiri orqali aktual mavzuga hissa qo‘shdilar	Donorlik xayriya aksiyasi davomida vazirlik xodimlari ko‘ngilli bo‘lib qon topshirdilar va bemorlarni davolashga o‘z hissalarini qo‘shdilar
Uzoq muddatli dastur	“Adliya sayli” huquqiy aksiyasi	Mamlakatimizda nishonlanadigan bayramlar sabab yurtdoshlarimiz huquqiy ongini oshirishga erishdilar	Sayyor qabulda aholi tomonidan 40 ga yaqin murojaatlar kelib tushgan bo‘lsa, shundan 12 tasi shu yerning o‘zida hal qilindi va 28 tasi nazoratga olindi
Ijtimoiy muhit	“Ishonch telefoni ishidan bir kun” aksiyasi	Jamoatchilikni qiziqtirayotgan savollar bilan	Adliya vazirligining boshqarma boshliqlari “1008” ishonch

		tanishish imkoniga ega bo'ldilar	telefoniga qo'ng'iroq qilgan har bir fuqaroning murojaatlarini jonli muloqot davomida tinglash orqali aholi bilan qayta aloqa o'rnatdilar
--	--	--	--

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatida samarali PR kommunikatsiyani tashkil etish”** deb nomlangan III bobida tadqiqotimizning obyekti bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot xizmatining faoliyati tahlil qilindi.

Bobning 1-paragrafida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan olib borilayotgan islohotlarni axborot xizmati PR texnologiyalar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish masalalari o‘rganildi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi axborot xizmati PR faoliyatini amalga oshirishda doimiy ravishda o‘z media resurslari imkoniyatlaridan foydalanadi. Jumladan, vazirlik veb-sayti²³, rasmiy telegram kanali²⁴, matbuot kotibi Nazokat Abduqunduzovanning rasmiy telegram kanali²⁵, Youtubedagi²⁶, feysbukdagi²⁷, instagramdagi rasmiy sahifalari²⁸, Oliy ta’limdan keyingi ta’lim bo‘yicha maslahat guruhi²⁹ orqali vazirlik faoliyatiga oid yangiliklarni hamda turli shakldagi media mahsulotlarni keng jamoatchilikka taqdim etadi.

Fan doktori N.Muratovanning ta’kidlashicha, “Multimedia, ommaviy axborot vositalarining konvergentsiyasi natijasida nafaqat yangiliklar va tahlillarni taqdim etish, balki auditoriya e’tiborini jalb qilish uchun eng muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Uning faol ishlatilishi yangi ommaviy axborot vositalarining radio, televideniye va bosma nashrlar kabi an’anaviy formatlarga nisbatan ustunligini ta’minlaydi. Multimediaviy yondashuv yanada jozibali, interaktiv va turli platformalar va qurilmalarga moslashtirilgan mahsulot yaratish imkonini beradi”³⁰. Ushbu omilni inobatga olgan holda vazirlik axborot xizmati tashkilot veb-saytini zamoniviy IT texnologiyalar asosida yangiladi va bu uning maqsadli auditoriyasi bo‘lgan yoshlar uchun qulayliklar yaratdi.

3-rasm

²³ <https://gov.uz/edu>

²⁴ <https://t.me/eduuz>

²⁵ https://t.me/nazokat_abdukunduzova


²⁶ <http://youtube.com/c/eduuz>

²⁷ <https://facebook.com/eduuzofficial>

²⁸ <https://instagram.com/edu.uz/>

²⁹ <https://t.me/doktoranturatalabgor>

³⁰ Муратова Н. Мультимедийная журналистика: международный и национальный опыт. 10.00.09 – Журналистика (филологические науки). Автореферат диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам. – Т. 2023. С. 16



Buning natijasida vazirlik veb-sayti eng ko‘p tashrif buyuriluvchi saytlari reytingida ikkinchi o‘rinni egalladi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali www.my.gov.uz reytingning birinchi pog‘onasini egallagan. Bunga asosiy sabab davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayonida inson omilini maksimal kamaytirish orqali IT texnologiyalardan foydalangan holda onlayn formatga o‘tish hisoblanadi.

Vazirlikning rasmiy yangilangan veb-saytiga bir oy davomida o‘rtacha 6,1 million foydalanuvchi tashrif buyuradi. Ularning 40,1 foizi kompyuterlar orqali, 59,8 foizi esa mobil qurilmalardan foydalangan holda saytga kiradi. Veb-saytga, asosan, uning eski versiyasi, www.lex.uz, www.minjust.uz va www.daryo.uz orqali o‘tishganligi aniqlandi.


Vazirlik axborot xizmati tomonidan ta’limda qo‘llaniladigan PR texnologiyalar orqali tashkilot hamda uning tizimidagi oliy ta’lim muassasalaridagi islohotlarni mamlakatimiz yoshlariga samarali yetkazishga harakat qiladi. Bular:

1. Media kommunikatsiyani amalga oshirish;
2. Marketing imkoniyatlaridan foydalanish;
3. Korporativ identifikatsiyani shakllantirish;
4. Ijtimoiy tarmoq marketingi (SMM)ga alohida e’tibor qaratishdir.

Tadqiqotimiz davomida davlat tashkilotlari axborot xizmati PR kommunikatsiyalariga asos bo‘ladigan ijtimoiy tarmoqlarning qaysi biridan tashkilotning maqsadli auditoriyasi ko‘proq foydalanishini aniqlash maqsadida “Davlat tashkilotlarining ijtimoiy tarmoqlardagi qaysi rasmiy sahifasini ko‘proq kuzatasiz?” degan savol bilan murojaat qildik. Respondentlarning asosiy qismi, ya’ni 80,4 foizi telegram, 29,1 foizi instagram, 14,8 foizi feysbuk, 11,7 foizi yutub va 1,2 foizi twitter deb javob berishdi. So‘rovnomaning ushbu bandida ham o‘z variantini yozish imkoniyati bo‘lganligi uchun ba’zi ishtirokchilar “hech qaysi” degan javob variantini qoldirishgan va bu katta qismni tashkil etmaydi.

1-diagramma

Давлат ташкилотларининг ижтимоий тармоқлардаги қайси расмий саҳифасини кўпроқ кузатасиз?
515 ответов



Vazirlikning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalari tadqiqotimizning birinchi obyekti bo'lgan Adliya vazirligiga qaraganda faolroq hisoblanadi. Buni vazirlik maqsadli auditoriyasi asosan yoshlardan iborat ekanligi bilan ham izohlash mumkin. Bugungi kunda telegramdagi <https://t.me/eduuz> kanalida 158 mingdan ortiq foydalanuvchi mavjud bo'lib, unda e'lon qilingan materiallarni o'rtacha ko'rilish ko'rsatkichi 30–40 ming foydalanuvchini tashkil etadi. Eng e'tiborga molik jihati har bir materialda izoh qoldirish funksiyasi mavjud bo'lib, bu foydalanuvchilarga munosabat bildirish imkonini beradi. Shuningdek, talabalar murojaatlari uchun <https://t.me/eduuzmuhokama> va doktorantlar murojaatlari uchun <https://t.me/doktoranturatalabgor> maxsus telegram kanallar ham faoliyat yuritadi.

Bobning 2-paragrafida vazirlik tomonidan ichki va tashqi PR kommunikatsiyani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha ko'rib chiqildi. Tahlil davomida vazirlikning ommaviy axborot vositalari vakillari bilan ishlash usuli, axborot xizmati tomonidan tashkil etilgan media tadbirlar hamda ushbu media tadbirlarni yoritishda asosiy e'tibor ijtimoiy tarmoqlarga qaratilishi hamda ijtimoiy tarmoqlar algoritmlaridan kelib chiqqan holda kontent plan tuzish lozimligi bo'yicha tavsiyalar berildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining jamoatchilik bilan aloqalari ommaviy muloqotning bir ko'rinishi sifatida muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy axborot bozorida PR xizmatlari ijtimoiy ahamiyatga molik axborotlarni tayyorlash va tarqatish bilan shug'ullanadilar. Press-reviz, dayjest, buklet, byulleten va yillik hisobotlar chiqaradi, matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, jurnalistlar bilan suhbatlar tashkil etadi hamda mamlakat hamda chet el OAVga yangiliklarni yetkazadilar. Aynan shu omilni hisobga olgan holda vazirlik axborot xizmati tomonidan o'tgan 2023-yil davomida amalga oshirilgan media tadbirlar tahlilini ko'rib chiqamiz:

5-jadval

№	Media tadbirlar nomi	I chorak	II chorak
1.	Matbuot anjumani	2	2
2.	Brifing	1	4
3.	Press-tur	4	4
4.	Taqdimot	89	124

5.	To'g'ridan-to'g'ri jonli efir	32	39
6.	Video bayonot	48	57
7.	Rasmiy munosabat	64	65
Jami:		240	295

Quyidagi jadvalda vazirlik axborot xizmati tomonidan o'tkazilgan jami 535 ta media tadbir doirasida tayyorlangan materiallar shaklini tahlil qilamiz:

6-jadval

№	Tayyorlangan material shakli	I chorak	II chorak
1.	Foto	2412	3017
2.	Video	317	515
3.	Matn	1056	2148
4.	Infografika	20	147
Jami:		3805	5827

Ushbu jadval vazirlik axborot xizmati kommunikatsiyaga xizmat qiladigan materiallarni tayyorlashda asosiy e'tiborni matn shakliga va uni ochib berish uchun fotodan foydalanishga qaratganligini ko'rish mumkin.

Bobning 3-paragrafida samarali PR kommunikatsiyani tashkil etishda maqsadli auditoriyaning muhimlik darajasi tahlilga tortilgan bo'lib, jamoatchilikning ehtiyojlarini o'rganish muhimligi, o'z navbatida, ularning manfaatdorligi munosabatlarga ta'sir etishi va unga muvofiq harakat amalga oshirilishi dalillandi.

Tadqiqotimiz doirasida o'tkazilgan so'rovnomada "Qaysi ommaviy axborot vositalari orqali davlat tashkilotlari faoliyatiga oid yangiliklarni kuzatasiz?", degan savolga ishtirokchilarning 53,4 foizi "Internet sayti", 34,6 foizi "OAVning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifasi", 7,7 foizi "Televideniye", 3,3 foizi "Matbuot", 1 foizi "Radio" degan javobni bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, so'rovnomada ishtirok etganlarning aksariyati qidiruvini tezkor amalga oshirish, turli axborot manbalariga bir vaqtning o'zida murojaat etish nuqtayi nazaridan internet saytlaridan yangiliklarni izlashni ma'qul ko'rmoqda.

Maqsadli auditoriya – faoliyatimizga bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan shaxslar, guruhlar, jamoalar bo'lib, ularni jinsi, yoshi, oilaviy holati, yashash joyi, ma'lumoti, sohasi, qiziqishlari, daromadi va h.k. bo'yicha segmentlash mumkin. Zamonaviy texnologiyalar rivoji natijasida segmentlash jarayoni yanada samarali bo'lishi uchun maqsadli auditoriyani, hatto uyali aloqa vositasining brendiga qarab ham ajratilmoqda. Bu esa target reklamaning yanada samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

Samarali PR kommunikatsiyani tashkil etishda auditoriyaning muhimlik darajasini quyidagi "Jamoatchilikning muhimlik darajasi" formulasi yordamida aniqlash mumkin.

4-rasm

Tashkilot + Jamoatchilik = Muhimlik darajasi		
Tashkilotning jamoatchilikka ta'siri	Jamoatchilikning tashkilotga ta'siri	Jamoatchilikning tashkilot uchun muhimlik darajasi
1dan 10gacha bo'lgan shkalada baholanadi	1dan 10gacha bo'lgan shkalada baholanadi	Ikkita ball qo'shib, ikkiga bo'linadi va umumiy natija aniqlanadi

